



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY SUDI
HUZURIDAGI SUDLAR FAOLIYATINI TA’MINLASH
DEPARTAMENTI SAMARQAND
VILOYAT HUDUDIIY BO‘LIMI BOSHIG‘INING**

**62-UM -sonli
BUYRUG‘I**

2025 yil 02 iyul

Samarqand shahri

“Xarid komissiyasi tarkibini qayta tasdiqlash to‘g‘risida”

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi № O‘RQ - 684 sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, Davlat budjetidan va budjetdan tashqari maxsus jamg‘armadan ajratiladigan pul mablag‘laridan oqilona foydalanish maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi sudlar faoliyatini ta‘minlash departamenti Samarqand viloyat hududiy bo‘limiga tovar moddiy boyliklarni (ishlarni va xizmatlarni) xarid qilish bo‘yicha:

-tanlov orqali tovar (ishlar va xizmatlar)ning qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining 6000 (olti ming) baravarigacha bo‘lgan miqdorida;

-tender orqali tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo‘yicha bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan ortiq summani tashkil etishi va mazkur qonunda belgilangan boshqa talablarga amal qilgan xolda quyidagi tarkibda xarid komissiyasi tuzilsin:

Komissiya raisi:	bo‘lim boshlig‘i -	Sh.N.Zayniyev
Komissiya a‘zolari:	bosh hisobchi -	A.B.Suyunov
	bosh muhandis -	G.M.Tashiyev
	xo‘jalik mudiri -	Sh.A.Lukmonov
	rahbar kotibi -	O.S.Sadikov
Komissiya kotibi:	bosh mutaxassis -	D.O.Husanov

2. Xarid komissiyasi a‘zolarining lavozimi o‘zgargan taqdirda, uning o‘rniga tayinlangan xodim komissiya a‘zosi sifatida faoliyat ko‘rsatishi belgilab qo‘yilsin.

3. Davlat xaridlari bo'yicha barcha elektron savdo platformalarida reja jadvallarni kiritish, nizom talablariga muvofiq auksion, tanlov, tender e'lonlarini joylashtirish, Elektron do'konda Davlat xaridlarini amalga oshirish va yagona yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar rasmiylashtirilishda mas'ul etib hududiy bo'lim bosh mutaxassisi Husanov Dilmurod Oblaqul o'g'li tayinlansin.

4. Muqaddam hududiy bo'lim tomonidan harid komissiyasi tarkibini tasdiqlash bo'yicha chiqarilgan buyruqlar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Asos: O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi № O'RQ - 684 sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunining 20-moddasi.

Hududiy bo'limi boshlig'i



Sh.Zayniyev